**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**
**MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

100011, Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 4, tel.: (998 71) 241-08-95, 241-68-95,
www.ssv.uz, e-mail: info@ssv.uz, ssv@exat.uz

2023 yil “20” fevral
08-04305 - son

**Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari**
**rektor va direktorlariga**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-279-sonli qarori 7-bandi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan 2022/2023 o‘quv yili bahorgi semestrida respublikaning bir hududidan boshqa hududiga mos va turdosh ta’lim yo‘nalishlariga o‘qishini ko‘chirishni so‘ragan talabalar ro‘yxati ilovaga muvofiq yuborilmoqda.

Talabalar o‘qishini ko‘chirish yuqorida qayd etilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi PQ-279-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 iyundagi 393-son qarori 3-ilovasi, Adliya vazirligida 2013 yil 26 fevralda 2431-raqam bilan ro‘yxatga olingan Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag‘larni taqsimlash tartibi to‘g‘risida Nizom talablariga qat’iy amal qilingan holda, taqdim etilgan hujjatlar sinchiklab tekshirilgandan so‘ng bajarilsin.

O‘qishi ko‘chirilishi ijobiy hal etilgan talabalarga uch kun muddatda o‘rnatilgan tartibda xabar berilsin.

Oliy ta’lim muassasasi rektori o‘qishi kuchirilayotgan talabani o‘quv rejalari va dasturlaridagi farqlarni va shunga asosan o‘quv kursini belgilashga shaxsan javobgardir.

Talabalar o‘qishini ko‘chirish va ko‘chirib tiklash to‘g‘risidagi taqdim etilgan hujjatlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilishi va ularning qonuniyligi uchun javobgarlik tibbiyot oliy ta’lim muassasalariga yuklatilishini inobatga olib talabalar o‘qishini ko‘chirish jarayonida talablarga javob bermaydigan hujjatlar aniqlangan taqdirda tibbiyot oliy ta’lim muassasasi rektori (filial direktori) mazkur hujjatlarni tekshirish va buyruq rasmiylashtirmaslik huquqiga ega ekanligi eslatib o‘tiladi.

*Ilova 7 varaqda.*

**Vazir o‘rinbosari** **E.Basitxanova**

Ijrochi: M.Abdusamatova
ID: 247159
Sana: 20.02.2023